

XALQARO SARMOYAVIY NIZOLARDA VIJDONLILIK TUSHUNCHASI - ARBITR DILEMMASI

*Xusanova Marjona G'anisher qizi,
Toshkent davlat yuridik universitetining
Xususiy huquq fakulteti talabasi
e-mail: xusanovamarjona17@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro investitsiya nizolarida arbitraj sudlari va taraflar tomonidan vijdonlilik prinsiplarining protsessual va mazmuniy jihatlari qamrab olgan holda qo'llanilishini o'rganadi. Vijdonlilik tamoyilining boshqa prinsiplardan farqini tahlil qiladi. Ushbu tamoyilning xalqaro sarmoyaviy nizolarni hal qilishdagi ro'lini, investitsiya nizolarida vijdonlilik tamoyilining qo'llanilishini va investitsiya nizolarining yurisdiksiya bosqichida vijdonlilik kontseptsiyasini amalga oshirishining batafsil tahlillarini tahlil qiladi, so'ngra ushbu kontseptsianing sud qarorlariga ta'sir qilishining turli usullarini bayon qiladi. Dunyo mamlakatlari xalqaro sarmoyaviy nizolarni hal qilish bo'yicha murojaat qiladigan konvensiya haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investor, xalqaro sarmoyaviy nizo, vijdonlilik prinsipi, xalqaro arbitraj, ICSID

ПОНЯТИЕ ДОБРОСОВЕСТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ СПОРАХ- ДИЛЕММА АРБИТРА

Аннотация. В данной статье рассматривается применение понятия добросовестности арбитрами и сторонами в международных инвестиционных спорах, включая процессуальные и материальные аспекты. Анализируется отличие принципа добросовестности от других принципов. Подробно анализируется роль этого принципа в разрешении международных инвестиционных споров, его применение и реализация принципа добросовестности в юрисдикционной фазе инвестиционных споров, а также различные способы воздействия этого принципа на судебные решения. Приведена информация о конвенции, на которую ссылаются страны мира при разрешении международных инвестиционных споров.

Ключевые слова: инвестиции, инвестор, международный инвестиционный спор, принцип добросовестности, международный арбитраж.

THE CONCEPT OF CONSCIENCE IN INTERNATIONAL INVESTMENT DISPUTES - ARBITRATOR'S DILEMMA

Abstract. This article examines the procedural and substantive application of the principle of good faith by arbitral tribunals and parties in international investment disputes. Analyzes the difference between the principle of conscientiousness and other principles. Analyzes the role of this principle in the resolution of international investment disputes, its application and detailed analysis of the implementation of the principle of good faith in the jurisdictional phase of investment disputes, and then

describes the various ways in which this principle affects judicial decisions. Provides information about the convention to which the countries of the world apply for the settlement of international investment disputes.

Key words: investments, investor, international investment dispute, principle of good faith, international arbitration.

Bugungi kunda jahonda iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanayotgan, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining ko'lamini kengayishi, davlatlar milliy iqtisodiyotlari o'zaro munosabatlari hamda aloqadorliklarining jadallashishi zamonamizning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylanmoqda. Globallashuv ishlab chiqarish sohalari, axborot almashinuvi, savdo-sotiq munosabatlari, transportning barcha turlari va boshqa xizmat ko'rsatish sohasidagi mamlakatlararo aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat esa davlatlararo iqtisodiy almashinuvni yuzaga keltiradi va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiy o'sishga erishish yoki barqarorlashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, xalqaro valyuta tizimi, kapitalning xalqaro harakati, iqtisodiy sohada islohatlar olib borish kabi harakatlarni amalga oshirishga turtki bo'ladi. Xalqaro investisiya huquqining vujudga kelishi milliy kapitalning o'zga davlat hududiga kirib kelishiga asoslanadi. Bulardan ko'rinadiki, har bir davlat boshqa davlatlar bilan investitsiyaviy munosabatlarni yo'lga qo'ymay turib, iqtisodiy faoliyat yurita olmaydi. Xalqaro investitsiya huquqi xorijiy davlatlarda amalga oshiriladigan ko'ptarmoqli korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni o'zida mujassamlashtiradi. Xalqaro investitsiya huquqi - xalqaro ommaviy huquqning tarkibiga kiruvchi eng katta turi hisoblanadi. Ushbu huquq tizimining eng katta va eng keng huquq tarmog'i deyilishiga sabab bunda fuqarolik huquqi, iqtisodiy huquq, soliq huquqi kabi ko'plab huquq tarmoqlarini o'z ichiga olishidir. Xalqaro investitsiya huquqini ham ichki huquq tizimlari (milliy qonunchilik), ham xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan transmilliy shartnoma huquqi sohasi sifatida tavsiflash mumkin. Mazkur huquq sohasi investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar uchun huquqiy asos hisoblanadi va tashqi investitsiya munosabatlarini tartibga soladi, uning kelgusida vujudga keladigan yangi sharoitlarga muvofiq moslashishiga ko'maklashadi, xususiy huquq sohasi yordamida tartibga solinadigan usullar bilan bir qatorda, huquqiy himoyani tartibga solish va uni ta'minlash shakllari va usullarini takomillashtirishga ko'maklashadi. Jahon xo'jaligining asosiy bosh g'oyasi investitsiya, tovarlar va xizmatlarning bir butun yaxlit bozorini tashkil etish, mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga yaqinlashtirish va birlashtirish bilan butun dunyo iqtisodiy kompleksiga asos solishdir.¹

So'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, davlatlararo va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida vujudga keladigan huquqiy normalar, qoidalar, prinsiplar iqtisodiy munosabatlarning tizimli, tartibli va normal ishlashishi ta'minlaydi. Xalqaro investitsiya huquqi investorlarga qulay shart-sharoitlar va ishonchli huquqiy kafolatlar yaratishga, bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning tegishli tashkiliy-huquqiy shaklini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu holat eng avvalo, milliy qonunchilik ya'ni

¹ M.Mirsaidov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: O'quv qo'llanma.-T.:2006.-b.14

maxsus investitsiya qonunchiligi, undan so'ng umumiy xarakterdagi me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan ular jumlasiga quyidagilar kiradi: fuqarolik, moliya, soliq, bank, bojxona qonunchiligi va boshqa qonunlar yordamida tartibga solinadi. Ammo xalqaro investitsiyaviy nizolarni tartibga solishda milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarning o'zi yetarli bo'lmaydi. Ba'zan shunday nizolar vujudga keladiki, investor va qabul qiluvchi davlat amal qiladigan qonunchilikdagi farqlar ular o'rtasidagi nizoning yanada chuqurlashishiga va ushbu nizoning hal qilinishi davomiyligining uzayishiga olib keladi, yana shunday turdagi nizolar ham mavjudki, ularni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda huquqshunoslar, qonun sharxlovchilari qonun analogiyasi yoki huquq analogiyasiga murojaat qilishadi. Bu tajribaning qo'llanilishi xalqaro investitsiya nizolarining ikkala tomon uchun ham foydali bo'lgan yechimning yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

Xalqaro investitsiya huquqining prinsiplari va normalari ushbu huquq sohasiga oid me'yoriy huquqiy-hujjatlar tizimini bir butun asosda birlashtiradi. Chet el investitsiyalarini huquqiy tartibga solish mexanizmi asosan xalqaro huquq normalari va qoidalari, xorijiy investitsiyalarning huquqiy maqomini belgilovchi normalardan tashkil topadi. Xalqaro huquqning me'yoriy tizimini kengaytirish sharoitida uning normalari nafaqat davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi, balki davlatlarning umumiy manfaatlariga muvofiq yuridik shaxslarning maqomi va faoliyatini ham tartibga soladi. Xorijiy investitsiyalar rejimini tartibga soluvchi prinsiplar va normalar ommaviy xalqaro huquq tizimida paydo bo'ldi. Xalqaro investitsiya huquqi tizimida xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish mexanizmi bu xalqaro investitsiyalarning huquqiy holatini belgilaydigan xalqaro huquq normalari, prinsiplari va qoidalari to'plamidir. Xalqaro investitsiya huquqi prinsiplari va me'yorlari xalqaro ommaviy huquqning umumiy tamoyillari va xalqaro investitsiya huquqining maxsus tamoyillari, maxsus an'anaviy va noan'anaviy investitsiya normalari va qoidalaridan kelib chiqadi va tatbiq qilinadi. Ko'plab davlatlar qonunchiligida mavjud va xalqaro sarmoyaviy nizolarni hal etishda ko'p qo'llaniladigan prinsiplar quyidagilardan iboratdir: adolatli va teng munosabat rejimi prinsipi, vijdoniylik prinsipi, investitsiyaning to'liq himoyasi va xavfsizligi prinsipi, milliy rejim prinsipi, eng maqbul millat rejimi prinsipi, investitsiyalarni natsionalizatsiya qilish paytida yuzaga kelgan zararni qoplash prinsipi, subrogatsiya (investitsiya zarar ko'rgan taqdirda xususiy investordan davlatga talab qilish huquqini berish) prinsipi, ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik prinsipi kabilar mavjud. Mazkur maqola mavzusi doirasida xalqaro sarmoyaviy nizolarda vijdoniylik prinsipining mohiyati va qo'llanilishi kabi masalalarga to'xtalamiz.

Vijdoniylik prinsipi ko'pgina tarixiy va zamonaviy huquqiy normalarning asosiy tarkibiy qismi va xalqaro huquqning umumiy prinsipidir. Mazkur prinsip tomonlardan bir-birlari bilan halol va adolatli munosabatda bo'lishlarini va nohaq foyda olishdan saqlanishni talab qiladi. Xalqaro investitsiya huquqida vijdoniylik prinsipi-o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash demakdir. Vijdoniylik shaxsning o'z majburiyatlarini bajarishini nazorat qila olish, o'zida majburiyatlarni bajarish burchini mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Xalqaro huquq va investitsiya arbitrajida vijdonlilik tamoyili davlat xulq-atvoriga, davlatlararo munosabatlarga,

shuningdek, xalqaro shartnoma bo'yicha da'vo qo'zg'atmoqchi bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi. Shunday qilib, u tomonlarning huquqiy munosabatlarini har tomonlama boshqaradi. Vijdoniylik prinsipining aniq tabiati hali ham muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, hakamlik sudi uni huquqiy majburiyatlarning avtonom manbai sifatida ko'rishni rad etadi va aksincha, prinsip majburiyatlarni bajarish bilan birga keladi. Huquqiy kategoriya sifatida vijdoniylik tamoyili odatiy huquqiy institutlar va qoidalardan tubdan farq qiladi. Huquqiy normaning gipoteza, dispozitsiya, sanktsiya kabi ajralmas tarkibiy qismlari mavjud emas. Vijdonlilik tamoyilining maqsadi - muayyan vaziyatlarda rasmiy ijobiy normalar huquqiy tartibga solish maqsadlaridan uzoqlashmasligi uchun qonun birligiga asoslangan huquqiy tartibga solishning amalga oshirilishini ta'minlashdir. Shu ma'noda, vijdoniylik tamoyilini huquqni qo'llashning alohida holatlarida huquq ruhining huquqiy moddiylishuvi sifatida tavsiflash mumkin. Sababi deyarli barcha huquqiy normalar vijdoniylik prinsipi asosida tuziladi. Ushbu prinsipga rioya etilmay yaratilgan normalar yuzasidan adolatsizlik, tomonlarni noqulay sharoitlarda qoldirish kabi holatlar yuzaga keladi. Bu esa investorlarga investitsiya faoliyatida ko'plab qiyinchiliklar tug'diradi va ushbu faoliyat bilan shug'ullanish istagini kamaytiradi. Shuning uchun ham investorlarni himoya qilishning ajralmas elementi bu vijdoniylik prinsipidir. Ushbu standart, shuningdek, barcha davlat tartib-qoidalarni adolatli tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. Xalqaro investitsiya huquqi rivojlanishi jarayonida shakllangan vijdoniylik prinsipi boshqa prinsiplardan farq qiladi. Mazkur prinsip bo'lmaganda, xalqaro huquq huquq deb hisoblanmas edi va aynan unda xalqaro huquqning yuridik kuch manbayi mujassamlashgandir. Ushbu prinsip bo'yicha davlatlar o'rtasida xalqaro investitsiya huquq normalarining yuridik kuchga egaligini tan olish to'g'risida bitimlar tasdiqlangan. Ushbu prinsip qolgan prinsiplarni amalga oshirish va qo'llashda asos vazifasini ham bajaradi. Chunki vijdoniylik tamoyiliga asoslanib qolgan prinsiplarni qo'llash xalqaro sarmoyaviy nizolarni hal etishda adolatning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Masalan: ikki tomonlama soliqqa tortmaslik prinsipi yoki subragatsiya prinsipi vijdoniylik prinsipi zahirida vujudga kelgan. Bunda investitsiya munosabatida qatnashuvchi investorga vijdoniylik prinsipiga asoslangan munosabat va shart-sharoitlar yaratilgan.

Vijdoniylik prinsipi o'zining mavhumiyligi tufayli olimlar uni turli huquqiy mazmunlarga ega deb hisoblashadi. Unga ko'ra: bir tomondan, huquqiy normalar yoki shartnoma bo'shliqlarini to'ldirishi, ikkinchi tomondan, huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi va fuqarolik muomalasini beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan turli huquqiy oqibatlarga yechim bo'la olishini ta'kidlashadi. Maqsad: vijdoniylik prinsipining umumiy huquqiy elementlarini aniqlash va uning umumiy majburiyati talablarini shartnomaning turli bosqichlarida qo'llash va vijdon ta'sirida shartnoma natijasini amalga oshirish. Ushbu prinsipni qo'llashda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning rivojlanishini ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydi.² Vijdoniylik tamoyilining huquqiy mavhumligi uning asosiy funksiyalarini bajarishga imkon beradi, lekin bir tamoyilni boshqasidan ajratish jarayonini murakkablashtiradi. Masalan normativ hujjatlarda va sud qarorlarida turli xil huquqiy talqinlarning mavjudligi mezonlarni aniqlashda

² Боргояков Александр Сергеевич. СТАНДАРТЫ «СПРАВЕДЛИВОГО РЕЖИМА» И «БЕЗОПАСНОСТИ» ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ. Москва.: 2018

chalkashlikka olib keladi. Prinsipni belgilash uchun ishlatiladigan atamalar ko'pincha huquqiy emas, balki umumiy ijtimoiy xususiyatga ega va yuridik terminlarda turlicha talqin qilinadi. Shu munosabat bilan, vijdoniylik tamoyilining mazmunli kesishishi holati yuz beradi.

Xalqaro investitsiyaviy munosabatlarda vijdoniylik prinsipi — xalqaro huquqning imperativ prinsipi bo'lib, uning ta'sir kuchi qanday mazmunga va manbaga xosligidan qat'i nazar, har qanday haqiqiy xalqaro majburiyatlarning (shartnomalar, odatlar, xalqaro organlarning majburiy qarorlari, bir tomonlama hujjatlar) vijdonan bajarilishini taqozo etadi. U fundamental umumiy prinsiplar va xalqaro huquqning qat'iy qoidalari toifasiga kiradi. Vijdoniylik prinsipi taqozo etadigan talablardan yana biri shuki, xalqaro investitsiya huquq bo'yicha o'zining majburiyatlarini vijdonan bajarmaydigan xalqaro huquq subyekti buning uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Ushbu prinsipning uzviy qismi sifatida vijdoniylik prinsipi quyidagi majburiyatlarni ko'zda tutadi:

- faktik shart-sharoitni, davlatlar va normalar ta'sir doirasiga kiruvchi xalqaro hamjamiyat manfaatlarini vijdonan aniqlash;
- qo'llash ko'zda tutiladigan normalarni vijdonan tanlash;
- normalarning amalda tatbiq etilishi ularning shakl va mazmuniga, xalqaro huquq va axloqqa, shuningdek, subyektlar zimmasidagi boshqa majburiyatlarga to'liq mos kelishini ta'minlash;
- huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymasli

Investitsion arbitraj- nizolarni hal qilishning nisbatan yosh sohasi hisoblanadi, shuning uchun ham qaror qabul qilish uchun mavjud pretsedent xalqaro huquqning rivojlangan sohalari bilan solishtirganda bir qancha kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin. Xalqaro sarmoyaviy nizolarda shartnomalar va turli xil qoidalarning mohiyati shunchaki cheklangan yoki umuman nizoni hal qilishda ahamiyatsiz va hal qilishda boshqa tomonni qiyin holatda qoldirishi mumkin, yohud tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasligi boshqa tomon uchun yomon oqibatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlarda vijdoniylik prinsipidan foydalanish bu o'zaro munosabatlarning hal qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda vijdoniylik prinsipi har xil turdagi nizolarni hal etishda qo'llanilishi qayd etilgan. Xususan, tribunallar firibgarlik holatlarini tahlil qilishda printsipga tayanganlar, bundan tashqari, korrupsiya, jarayonni suiiste'mol qilish, huquqlarni suiiste'mol qilish. Vijdoniylik prinsipini amalga oshirishdan oldin ko'pincha tomonlarga quyidagi majburiyat yuklanadi: tomonlar arbitrajga murojaat qilishdan oldin investitsiya nizolarini vijdonan hal qilishga harakat qilishlari shart. Hakamlilik muhokamasi davomida ham vijdonlilik saqlanishi kerak va u quyidagilarni o'z ichiga oladi: nizoni kuchaytirmaslik yoki arbitrajning halolligiga ta'sir qilmaslik majburiyati; e'tirozlarni kechiktirmasdan bildirish majburiyati; dalillarni ishlab chiqarishda sud bilan hamkorlik qilish majburiyati kabilar shular jumlasiga kiradi. Prinsiplarning qo'llanilishi xalqaro investitsiyaviy nizolarni ijobiy va adolatli hal etilishida katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pmillatli korxonalar uchun mahalliy investorlar bilan bir qatorda unga teng munosabatda bo'lishini bilish yetarli bo'lmasligi mumkin. Chunki teng munosabat ba'zan zararli bo'lishi mumkin. Bu ayniqsa qonun ustuvorligining kuchli an'analariga ega bo'lmagan mamalakatlarda ko'p uchraydi. Xalqaro investitsiya

huquqi ushbu dilemmaga qo'shimcha himoya standartlarini yaratish va ishlab chiqish orqali javob berdi. Bu qoidalar biroz noaniq bo'lsa ham, mezbon davlatning xorijiy investorlarga nisbatan munosabati bo'yicha mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.³ Vijdonlilik tamoyilini tavsiflashda, aksariyat huquqiy tizimlar uning funktsiyalarini belgilashga e'tibor berishadi, chunki vijdonlilik mavhum tushuncha bo'lib, uning mazmunini o'z-o'zidan belgilash mumkin emas, faqat ishning o'ziga xos holatlariga bog'liq. Biroq, ko'pchilik huquqshunoslar nazariy kontseptsiyadagi farq unchalik muhim emasligini bildirishadi, muhimi, sud bu tamoyilni qanday va qachon qo'llashi. Bulardan xulosa qilish mumkinki, xalqaro sarmoyaviy nizolarda vijdoniylik tamoyilining vazifasi muayyan holatda yuzaga keladigan holatlarga moslashishdir. Vijdonlilik tamoyili yangi huquqiy qoidalar va normalarni yaratish uchun emas, balki rasmiy tartibga solish qonunda ko'zda tutilgan va nazarda tutilgan maqsad va vazifalardan chetga chiqqan hollarda aniq huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni tuzatishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, sudyaning vazifasi muayyan vaziyatda qonunning maqsadini uning mohiyatiga moslashtirishdir. Bir nechta huquqiy tizimlar vijdonli harakat qilish burchining talqinini qonunlashtirishga harakat qilganligi sababli, printsiplarni o'rnatish uchun maxsus metodologiyani ham, vijdonlilikning maxsus huquqiy nazariyalarini ham o'z ichiga olgan ta'limot, birinchi navbatda, sud talqini maqsadlari muhim ahamiyat kasb etishini o'rgatishgan.

Sud amaliyoti va doktrinasida vijdonlilik tamoyilining bir asrdan ortiq jadal rivojlanishini tahlil qilish bizga vijdonlilik tamoyilining yetarlicha aniq ichki tizimini aniqlash imkonini beradi. U bevosita ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan maxsus huquqiy funktsiyalar (konkretlashtiruvchi funktsiya, to'ldiruvchi funktsiya, cheklovchi funktsiya va tuzatuvchi funktsiya) orqali ochiladi. Tizimlashtirishning funktsional usuli ma'lum huquqiy munosabatlarda vijdonlilik printsiipi qanday ishlashini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Investitsion faoliyatni xalqaro huquqiy tartibga solish sohasidagi eng muhim yutuqlardan biri 1965 yildagi (ICSID — International Center for Settlement of Investment Disputes) “Davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish tartibi to'g'risida”gi konventsiyasining qabul qilinishi bo'ldi va 1966-yil 14-oktabrda kuchga kirdi. Ushbu konventsiya kafolatlangan investorlar huquqlarini himoya qilishning asosiy usuli bu investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) doirasidagi nizolarni hal etish mexanizmidir ya'ni investitsiya nizolarini hal etish bo'yicha xalqaro markaz xalqaro investitsion nizolarni hal qilishga mo'ljallangan dunyodagi yetakchi institut hisoblanadi. ICSID, investor-davlat nizolarini hal qilish bo'yicha yetakchi xalqaro arbitraj instituti va Jahon banki guruhining a'zosi bo'lib, davlat va investor o'rtasida adolatli va mustaqil arbitraj uchun imkoniyat yaratadi⁴. Ushbu konventsiya rivojlangan va rivojlanayotganiqtisodiyotlar orasida keng a'zolikka ega bo'lib, dunyo bo'ylab ko'plab investitsiya shartnomalari bo'yicha kelib chiqadigan investor va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilishning protsessual mexanizmi sifatida faoliyat olib bormoqda. Mazkur konventsiya doirasida shu kungacha 600 dan ortiq investitsiyaviy

³ Devid Kollins. Xalqaro investitsiya huquqiga kirish.- Buyuk Britaniya.:2017.-b.169

⁴ Терешкова В.В., Гадалов Г.А. — Применение теста Салини при определении инвестиций в практике Международного центра по урегулированию инвестиционных споров // Международное право и международные организации / International Law and International Organizations. – 2021

nizolar ko'rib chiqildi. Markaz nizolarni kelishuv, arbitraj yoki dalillarni topish orqali hal qilishni ta'minlaydi. ICSID jarayoni xalqaro investitsiya nizolari va ularni jalb etgan tomonning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, investorlar va qabul qiluvchi davlatlarning manfaatlari o'rtasida puxta muvozanatni saqlash uchun ishlab chiqilgan. Har bir holat tomonlarning dalillari va huquqiy asoslarini eshitganidan so'ng arbitraj tribunali tomonidan ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda Ukraina Investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) doirasidagi bir qancha xalqaro investitsiya nizolarining ishtirokchisi bo'ldi. Xalqaro sud va arbitraj organlari, shu jumladan ICSID arbitraj sudlari, davlatlar ishtirokidagi nizolarni hal qilishda ko'pincha xalqaro huquqiy odatlardan foydalanadilar. Ma'lumki, xalqaro huquqiy odat amalda shakllangan yozilmagan xulq-atvor qoidasi bo'lib, ana o'sha xulq-atvor qoidalari va yuqorida keltirilgan prinsiplar asosida sarmoyaviy nizolar hal qilinmoqda. Vijdoniylik ushbu holatda shuni anglatadiki, bunda tegishli majburiyat halollik bilan o'z vaqtida aniq va uning mazmuniga muvofiq bajarilishi lozim. Bunda davlat o'zining ichki qonunchiligi qoidalarini xalqaro majburiyatini bajarmaslikka sabab qila olmaydi. Hech qanday boshqa vaziyatlar davlatning xalqaro majburiyatini bajarmaslik asosi sifatida xizmat qila olmaydi.

Hozirda yurtimizda ham investitsiyaviy nizolarni hal qilish bo'yicha ko'plab islohatlar olib borilmoqda, Bu islohatlarning asl mohiyati investitsiya muhitini yaxshilash, investorlarga qulay shart-sharoit yaratish, iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalq farovonligiga erishishdan iborat. Chet eldan investorni jalb etish uchun unga, birinchi navbatda, qulay muhitni, huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonuniy kafolatlarni yaratib berish lozim. Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil davrida iqtisodiy sudlarda 3 mingdan ortiq chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bilan bog'liq nizolar hal etilgan. Ushbu iqtisodiy ishlarning deyarli yarmi Toshkent shahar iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan. 2020 yil bo'yicha respublikamiz Jahon bankining "Biznesni yuritish" (Doing Business) reytingida dunyoning 190 ta davlatlari orasida 7 pog'ona ko'tarilib 69-o'rinni egalladi va biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha 8-o'rinni egalladi hamda eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan o'rin oldi. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni bu boradagi islohotlarning muhim debochasi bo'ldi. Ushbu qonunning 63-moddasiga ko'ra, chet el investitsiyalari bilan bog'liq bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorning investitsiya faoliyatini amalga oshirishi chog'ida yuzaga keladigan nizo (sarmoyaviy nizo) muzokaralar o'tkazish, undan keyin agar kelishuvga erishilmasa, mediatsiya yo'li bilan hal etilishi ko'rsatilgan. Muzokaralar o'tkazish va mediatsiya yo'li bilan tartibga solinmagan investitsiyaviy nizo O'zbekiston Respublikasining tegishli sudi tomonidan hal qilinishi kerakligi belgilangan.

O'zbekistonlik huquqshunos sifatida ICSID xalqaro arbitrlari ro'yxatiga kiritilgan hamyurtimiz, yuridik fanlari doktori, professor Islombek Rustambekov huquqshunos professor 5 ta xalqaro arbitraj markazining arbitrlari ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. U intervyularining birida quyidagi fikrlarni ta'kidlagan: "Mamlakatimiz Vashington konvensiyasiga va bu orqali ICSIDga 1994-yili qo'shilgan. Bugungi kunga qadar mamlakatimiz ishtirokida 8 ta investitsiya nizosi ICSIDda ko'rib chiqilgan va

mamlakatimiz 55 ta davlat bilan o‘zaro investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va himoyalash to‘g‘risidagi ikki taraflama shartnomalar imzolagan. Ushbu shartnomalarda investorlar o‘zlarining huquqlari buzilgan va buning natijasida ularga moddiy zarar yetkazilgan deb hisoblaydigan bo‘lsalar ICSID xalqaro arbitraj markaziga murojaat qilish huquqlari kafolatlangan”. Ammo yurtimizda investitsiyaviy nizolarni hal qilishda ma’lum bir kamchiliklar ham mavjud. Bu kamchiliklarni quyidagi holatlarda ko‘rishimiz mavjud. Jumladan, investitsiyaga oid nizolarni sud tomonidan hal etish bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlari normalari yetarli darajada rivojlanmagan va ko‘plab nizolarni hal etishda qonunchilikdagi bo‘shliqlar ko‘zga tashlanmoqda. Yana bir kamchiliklardan biri investitsiya faoliyatiga aloqador iqtisodiy, fuqarolik, ma’muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar turli xil sudlar tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Iqtisodiy sohada yuzaga keladigan nizolar iqtisodiy sudlar, fuqarolik, mehnat va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik ishlar bo‘yicha sudlar va davlat organlari bilan ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, investorlar faoliyatiga oid nizolar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda turli xil sud amaliyoti shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammoli holatlar dunyo tajribasida investitsiya sudalari amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish orqali bartaraf etilishi mumkinligi o‘rganilgan holda izlanishlar olib borilmoqda va tadqiq qilinmoqda.

REFERENCES

1. M.Mirsaidov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar: O‘quv qo‘llanma.-T.:2006.
2. Боргояков Александр Сергеевич. СТАНДАРТЫ «СПРАВЕДЛИВОГО РЕЖИМА» И «БЕЗОПАСНОСТИ» ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ. Москва.: 2018
3. Devid Kollins. Xalqaro investitsiya huquqiga kirish.- Buyuk Britaniya.:2017
4. Терешкова В.В., Гадалов Г.А. — Применение теста Салини при определении инвестиций в практике Международного центра по урегулированию инвестиционных споров – 2021
5. UNIDROIT. Institut international pour l'unification du droit privé “PRINCIPES RELATIFS AUX CONTRATS DU COMMERCE INTERNATIONAL “ Rome.1994
6. “LE RÈGLEMENT DES DIFFÉRENDS” CENTRE INTERNATIONAL POUR LE RÈGLEMENT DES DIFFÉRENDS RELATIFS AUX INVESTISSEMENTS. New York et Genève. 2003
7. <https://icsid.worldbank.org/rules-regulations/convention>
8. https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/ICSID_Convention_EN.pdf